

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/05.04.2025.Qx.02.13 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

USMANOV OMONALI TURGUNOVICH

**MINERAL O'G'ITLAR ME'YORLARINI ILDIZMEVALI
SABZAVOTLARDAGI SAMARADORLIGI
(Namangan viloyatining och tusli bo'z tuproqlari sharoitida)**

06.01.04 – Agrokimyo

**QISHLOQ XO'JALIGI FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Samarqand – 2025

**Qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по сельскохозяйственным наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on agricultural sciences**

Usmanov Omonali Turgunovich

Mineral o‘g‘itlar me‘yorlarini ildizmevali sabzavotlardagi samaradorligi
(Namangan viloyatining och tusli bo‘z tuproqlari sharoitida).....3

Усманов Омонали Тургунович

Эффективность норм минеральных удобрений на корнеплодных овощах
(в условиях светло-серозёмных почв Наманганской области)21

Usmanov Omonali Turgunovich

Efficiency of mineral fertilizer rates in root crops (In the light gray soils
of the Namangan region)41

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works.....45

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/05.04.2025.Qx.02.13 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

USMANOV OMONALI TURGUNOVICH

**MINERAL O'G'ITLAR ME'YORLARINI ILDIZMEVALI
SABZAVOTLARDAGI SAMARADORLIGI
(Namangan viloyatining och tusli bo'z tuproqlari sharoitida)**

06.01.04 – Agrokimyo

**QISHLOQ XO'JALIGI FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Samarqand – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida №B2022.2.PhD/Qx985 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Namangan davlat universitetida bajarilgan.

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.samdu.uz) va «Ziyonet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Sulaymonov Inomjon Jamoldinovich
qishloq xo'jaligi fanlari nomzodi, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Mashrabov Mansur Ibragimovich
qishloq xo'jaligi fanlari falsafa doktori, dotsent

Ibragimov Nazar Madrimovich
qishloq xo'jaligi fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti

Dissertatsiya himoyasi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/05.04.2025.Qx.02.13 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil «28» *noyabr* soat *14* dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 140400, Samarqand viloyati, Jomboy tumani, Sh.Burxonov ko'chasi 2A uy. Tel.: (+99866) 240-38-47, E-mail: devonxona@samdu.uz). Samarqand davlat universiteti, Agrobiotexnologiyalar va oziq-ovqat xavfsizligi instituti.

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ *89* -raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 140104, Samarqand sh., Universitet xiyoboni, 15-uy. Tel.: (+99866) 239-11-51.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «*11*» *11* kuni tarqatildi.
(2025-yil «*11*» *11* № *2* -raqamli reyestr bayonnomasi)



F.X.Xashimov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, qishloq xo'jaligi fanlari doktori, professor

Sh.A.Xazratkulov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, qishloq xo'jaligi fanlari nomzodi, dotsent

E.Umurzakov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, qishloq xo'jaligi fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Dunyo aholisini oziq-ovqat mahsulotlariga jumladan, sabzavot mahsulotlariga bo‘lgan talabini qondirish uchun mavjud ekin maydonlaridan samarali foydalanish talab etilmoqda. Buning uchun esa mineral o‘g‘itlardan foydalanish samaradorligini oshirib borish talab qilinadi. Bunda ayniqsa, to‘g‘ridan-to‘g‘ri istemol qilinadigan sabzavotlarda o‘g‘itlar me‘yorini to‘g‘ri belgilash muhimdir. Mineral o‘g‘itlar bozorining global hajmi 2024 yilda 115,28 milliard dollarni tashkil etdi va 2034 yilga kelib 185,29 milliard dollarga yetishi kutilmoqda, bu esa 2025 yildan 2034 yilgacha bo‘lgan prognoz davrida 4,86 foiz barqaror AQSH dollarini qayd etadi¹. Respublikamizda esa sabzavot ekin maydonlari kengayishi bilan bir qatorda ekinlar hosildorligi ham ortishi kuzatilmoqda. Respublikamizning 2023-yilgi aholi bosh soniga hisoblaganda istemol qilinishi kerak bo‘lgan me‘yordan (128 kg/ga) 2,3 barobar ko‘p 297 kg miqdorida sabzavot istemoli kuzatildi². Ortib kelayotgan dunyo aholisini sabzavot mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojlarini doimo qondirib borish dolzarb hisoblanadi.

Dunyoda ildizmevali sabzavot yetishtiruvchi davlat olimlari tomonidan ildizmeva va barg hosildorligini oshirish, uni sifatini yaxshilash bo‘yicha bir qator ustuvor yo‘nalishlarda keng qamrovli ilmiy-tadqiqotlar olib borilmoqda. Buning uchun esa o‘simlikni biologik xususiyatlari, tuproq xossalari, tuproq-iqlim sharoitlarini hisobga olgan holda mineral o‘g‘itlar me‘yorlarini turli ildizmevali sabzavotlarda o‘rganishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Respublikamizning mavjud sug‘oriladigan maydonlari samaradorligini oshirish maqsadida talab va taklifdan kelib chiqib ekinlar maydoni hamda ekin turini to‘g‘ri joylashtirish, ularning agrotexnik tadbirlariga ahamiyat qaratish muhim vazifalardandir. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasida “...tuproq-iqlim sharoitlaridan kelib chiqqan holda o‘g‘itdan foydalanishning samarali tizimini joriy etish, tuproq unumdorligini saqlash va yanada oshirish choralari ko‘rish”³ ni amalga oshirish yo‘llari ko‘rsatib o‘tilgan. Shuning uchun ham Namangan viloyatining sug‘oriladigan yerlarida ildizmevali sabzavotlarni yetishtirishda mineral o‘g‘itlar me‘yorlariga bog‘liq ravishda tuproq unumdorligini va tuproqdagi oziqa moddalar miqdorini muntazam oshirib borish muhim ahamiyatga ega.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktyabrdagi PF-5853-sonli “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasini amalga oshirish natijasida ustuvor yo‘nalishlar kesimida boshqali donning o‘rtacha hosildorligini 2025-yilda 70 s/ga, 2030-yilda esa 75 s/ga ga yetkazish to‘g‘risida” gi farmoni hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

¹ <https://www.precedenceresearch.com/mineral-fertilizers-market>

² <https://cyberleninka.ru/article/n/intensiv-sabzavotchilikni-rivozhlantirishi-iqtisodiy-samaradorligi/viewer>

³ “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktyabrdagi PF-5853-son O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasini to‘g‘risida” gi farmoni.

Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yoʻnalishlariga bogʻliqligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining “Qishloq xoʻjaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi” ustuvor yoʻnalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning oʻrganilganlik darajasi. Ildizmevali sabzavotlarda mineral oʻgʻitlarning samaradorligi boʻyicha E.V.Evdokimov, V.G.Dolgachev, I.I.Kozlov, D.O.Litvinov, V.A.Patskova, S.A.Andrianov, E.V.Ermakova, M.I.Azopkov, A.V.Yanchenko, D.V.Bogomolov, Y.Dumanski, S.Pieri, P.Vintuar, S.Dieke, T.P.Lapuxin kabi chet ellik olimlar, oʻzbek olimlaridan B.Xoliqov, I.Sulaymonov va boshqa olimlar tomonidan ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Biroq, ildizmevali sabzavotlarda ildizmeva hosiliga hamda mahsulot sifatiga ijobiy taʼsir koʻrsatadigan samarali mineral oʻgʻitlar meʼyorlarini ishlab chiqish hamda ularni tuproq unumdorligiga, tarkibidagi oziqa moddalar miqdorini oʻzgarishiga bogʻliq boʻlgan ilmiy izlanishlar olib borish dolzarb hisoblanadi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy taʼlim muassasaning ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bogʻliqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Namangan davlat universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasining B-3.17 (Biotexnologiya kafedrası) «Namangan viloyatining sugʻoriladigan tuproqlari sharoitida qishloq xoʻjalik ekinlari uchun mineral oʻgʻitlarning samarali meʼyorlarini ishlab chiqish» (2017-2024 yy.) mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi qadimdan sugʻoriladigan och tusli boʻz tuproqlarning agrokimyoviy xususiyatlariga ildizmevali sabzavotlarga qoʻllanilgan mineral oʻgʻitlar meyorlarining taʼsirini aniqlash, ildizmevali sabzavotlarning oʻsishi, rivojlanishi, hosili va hosil sifatiga aniqlash, oʻgʻitlar samaradorligini yanada oshirish, har bir ildizmevali sabzavotlar uchun maqbul oʻgʻitlar meʼyorini hamda qoʻllash muddatlarini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

ildizmevali sabzavotlar uchun qollanilgan mineral oʻgʻitlar meʼyorlarini tuproqdagi harakatchan oziqa moddalar (nitratlil azot, harakatchan fosfor, almashinuvchan kaliy) dinamikasiga taʼsirini aniqlash;

qoʻllanilgan mineral oʻgʻitlar meʼyorlarini ildizmevali sabzavotlar tuproqdan oziqa moddalar oʻzlashtirishiga taʼsirini aniqlash;

ildizmevali sabzavotlar oʻsish va rivojlanishi, quruq modda toʻplashi bilan qoʻllanilgan mineral oʻgʻitlar meʼyorlari orasidagi bogʻliqlikni oʻrganish;

mineral oʻgʻitlar meʼyorlarini ildizmevali sabzavotlarning ildizmeva va barg hosiliga hamda ularni iqtisodiy samaradorligiga taʼsirini aniqlash;

ildizmevali sabzavotlardan yuqori va sifatli ildizmeva hamda barg hosili shakllantirishini taʼminlaydigan ilmiy jihatdan asoslangan mineral oʻgʻitlar qoʻllashning maqbul tizimini ishlab chiqish;

ildizmevali sabzavotlardan yuqori va sifatli ildizmeva hosilini shakllantirishga qaratilgan ilmiy–amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot obʻekti sifatida Namangan viloyatida tarqalgan sugʻoriladigan och tusli boʻz tuproqlar olingan, turpning “Murod” navi, sholgʻomning “Gulshod” navi, osh lavlagining “Yagona” navi va bryukvaning “Mirzachoʻl” navlari olindi.

Tadqiqot predmeti oʻrganilgan tuproqlarning mexanik tarkibi, agrokimyoviy xossalari, mineral oʻgʻitlarning qoʻllash meʼyorlari va muddatlari, ildizmevali

sabzavotlardan turpning “Murod” navi, sholg‘omning “Gulshod” navi, osh lavlagining “Yagona” navi va bryukvaning “Mirzacho‘l” navlari o‘shish-rivojlanishi, ildizmeva va barg hosili, hosilning tarkibi, tuproq va o‘simlikdagi oziqa moddalar miqdori va o‘g‘itlarning samaradorligini baholash hisoblandi.

Tadqiqot usullari. Dala va ishlab chiqarish tajribalarini qo‘yish, fenologik kuzatishlar, tuproq va o‘simliklar olish va ularni kimyoviy tahlili, biologik hamda haqiqiy hosilini aniqlash, olingan ma‘lumotlarni statistik tahlil qilish «Методика полевого опыта» va «Dala tajribalarini o‘tkazish uslublari», «Методы агрохимических анализов почв и растений Средней Азии» uslublari asosida bajarilgan hamda tajribadan olingan ma‘lumotlarning dispersion-statistik tahlili «Microsoft Excel» dasturi yordamida B.A.Dospexov uslubi bo‘yicha bajarilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ilk bor Namangan viloyatining sug‘oriladigan och tusli bo‘z tuproqlari sharoitida ildizmevali sabzavotlar (turp, sholg‘om, osh lavlagi, bryukva) navlari uchun mineral o‘g‘itlarni qo‘llashning maqbul me‘yorlari ishlab chiqilgan;

ildizmevali sabzavotlar uchun mineral o‘g‘itlarning maqbul me‘yori $N_{150}P_{100}K_{150}$ kg/ga ekanligi aniqlanib mineral o‘g‘itlarni ushbu me‘yorlarida ildizmevali sabzavotlar etnshtirilganda tuproqdagi nitratli azot miqdorini dastlabkidan 2,4-3,2 mg/kg oralig‘ida ortishiga, harakatchan fosfor miqdori 1.2-2.0 mg/ga va almashinuvchan kaliy miqdori esa 46-47 mg/kg ga kamayganligi aniqlangan;

mineral o‘g‘itlarni maqbul me‘yorlari tabaqallashtirib qo‘llash hisobiga ildizmevali sabzavotlarning o‘shishi va rivojlanishi yaxshilanganligi hamda oziqa moddalarini 1:0,5:1,0 nisbatlarda o‘zlashtirganligi aniqlanib, maqbul o‘g‘it qo‘llash asosida ildizmevali sabzavotlar hosili bilan mineral o‘g‘itlar samaradorligi o‘rtasidagi bog‘liqlik aniqlangan;

o‘simlik-tuproq-o‘g‘it tizimida ildizmevali sabzavotlarning oziqlanish xususiyatiga bog‘liq holda ildizmeva hosili va ular tarkibidagi foydali moddalar miqdori oshganligi aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat: Namangan viloyatining eskidan sug‘orib kelinayotgan och tusli bo‘z tuproqlar sharoitida ildizmevali sabzavotlarga $N_{150}P_{100}K_{150}$ kg/ga me‘yorda mineral o‘g‘itlar qo‘llash hisobiga osh lavlagi ekilgan dala tuprog‘ida dastlabkidan nitratli azot 2,4-3,2 mg/kg ortishi, mineral o‘g‘itlar solinganiga nisbatan harakatchan fosfor 2,0-2,2 mg/kg ga, almashinuvchan kaliy 21-30 mg/kg ga kamayishi ta‘minlandi;

ildizmevali sabzavotlarga $N_{150}P_{100}K_{150}$ kg/ga mineral o‘g‘it qo‘llash hisobiga ularni tuproqdan 107,2-128,3 kg/ga azot, 42,2 kg/ga fosfor, 93,9-128,8 kg/ga kaliy o‘zlashtirilishiga, 1 s/ga hosil olish uchun osh lavlagi tuproqdan 4,5 kg/ga azot, 2,3 kg/ga fosfor, 4,5 kg/ga kaliy o‘zlashtirishi mineral o‘g‘itlar samaradorligini ortishiga olib kelgan;

mineral o‘g‘itlar ildizmevali sabzavotlarga $N_{150}P_{100}K_{150}$ kg/ga me‘yorda qo‘llanilishi hisobiga quruq modda miqdori osh lavlagida eng yuqori 79,7; keyin turpda 76,8; bryukvada 73,6 va sholg‘omda 68,1 g/o‘simlik bo‘lishiga erishilgan;

ildizmevali sabzavotlardan turpda 246 s/ga, sholg‘omda 228,3 s/ga, osh lavlagida 277,3 s/ga, bryukvada 228,0 s/ga ildizmeva hosili olish uchun och tusli

bo'z tuproqlarda mineral o'g'itlarni $N_{150}P_{100}K_{150}$ kg/ga me'yorda qo'llanilishi hisobiga olinishi ta'minlangan;

mineral o'g'itlarni ildizmevali sabzavotlardan osh lavlagiga $N_{100}P_{75}K_{100}$ kg/ga me'yorda mineral o'g'it berilishi rentabillikni 99,0%, turp o'simligiga $N_{150}P_{100}K_{150}$ kg/ga mineral o'g'it qo'llanilganida esa 76,1% bo'lishiga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Dala tajribalari umumiy qabul qilingan uslublaridan foydalanib o'tkazilganligi, olingan ma'lumotlarga matematik-statistik ishlov berish korrelyatsion bog'liqlik borligi aniqlanganligi, mutaxassislar tomonidan ildizmevali sabzavotlar hosildorligi bilan tuproq xossalari hamda qo'llanilgan o'g'it me'yorlari hamda ilmiy-amaliy ishlar yakuniy natijalarining mos kelishi ta'kidlanganligi, tadqiqotlarda to'plangan ma'lumotlar xorijiy va mahalliy tajribalar bilan taqqoslanganligi, tadqiqot natijalarini respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokama qilinganligi shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda chop etilganligi natijalarning ishonchliligini ko'rsatadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati Namangan viloyatining eskidan sug'oriladigan och tusli bo'z tuproqlari sharoitida ildizmevali sabzavotlar uchun qo'llanilgan $N_{150}P_{100}K_{150}$ kg/ga me'yordagi mineral o'g'itlar tuproqning harakatchan oziqa moddalari dinamikasiga, o'simliklarni oziqa moddalarini o'zlashtirishiga, sabzavotlarni o'sish-rivojlanishiga va ular hosildorligiga, sifatiga ta'siri, ishlab chiqarish mahsuldorligini oshirishning ilmiy asoslanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ildizmevali sabzavotlardan turp, sholg'om, osh lavlagi va bryukva uchun maqbul mineral o'g'itlar me'yorlarini ishlab chiqish bilan ularning ildizmeva hosildorligini ortishi bilan ularning tarkibini sifatli saqlab qolinishini ta'minlash, iqtisodiy samaradorlikka erishish imkonini beruvchi agrotexnologiyalar ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ildizmevali sabzavotlar uchun mineral o'g'itlarning me'yorlarini turp, sholg'om, osh lavlagi, bryukvaga bo'lgan ta'siri bo'yicha olingan ma'lumotlar asosida:

Respublikamizdagi mavjud fermer va dehqon xo'jaliklari uchun "Mineral o'g'itlar me'yorlarini ildizmevali sabzavotlardagi samaradorligi" (Namangan viloyatining och tusli bo'z tuproqlar sharoitida) nomli tavsiyanoma ishlab chiqilib, Namangan viloyatining Namangan tumani fermer va dehqon xo'jaliklarida amalga joriy qilingan (Qishloq xo'jaligi vazirligining 2024-yil 8-oktyabrdagi 05/06-02-876-son ma'lumotnomasi). Natijada, ushbu tavsiyanoma ildizmevali sabzavotlar (osh lavlagi, turp, sholg'om va bryukva) yetishtiradigan fermer va dehqon xo'jaliklarida ulardan yuqori hosil olish uchun amaliy qo'llanma sifatida xizmat qilmoqda;

ildizmevali sabzavotlar (osh lavlagi, turp, sholg'om va bryukva) uchun mineral o'g'itlarni $N_{150}P_{100}K_{150}$ kg/ga me'yorda qo'llash texnologiyasi Namangan viloyatining Namangan tumanidagi "Azixon Nosirov fermer xo'jaligida 5 ga, "Xonobod Nurafshon" fermer xo'jaligida 4 ga, "Nafis ko'klam" fermer xo'jaligida 6 ga, jami 15,0 gektar maydonga joriy etilgan. (Qishloq xo'jaligi vazirligining 2024-yil 8-oktyabrdagi 05/06-02-876-son ma'lumotnomasi). Buning natijasida turp o'simligining ildizmeva hosildorligi 235 s/ga ni, sholg'omniki 216 s/ga ni, osh

lavlaginiki 254 s/ga ni va bryukvaniki 214 s/ga ni tashkil etgan. Rentabillik darajasi ham mos ravishda 41,8; 36,1; 99,0 va 61,1% bo'lishiga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprotatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari har yili universitetning Ilmiy kengashida muhokama qilingan va dala tajribalari maxsus komissiya tomonidan ijobiy baholangan. Olingan ilmiy ma'lumotlar jami 4 ta jumladan, 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 10 ta ilmiy ish chop etilgan, shundan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, jumladan 1 ta xorijiy va 4 ta respublika jurnallarda nashr etilgan. Xalqaro va respublika miqyosidagi anjumanlarda 4 ta maqola, shuningdek 1 ta ishlab chiqarishga tavsiyanoma nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, 5 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 117 betni tashkil etdi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o'tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan. Tadqiqotning maqsadi, vazifalari hamda ob'ekt va predmetlari tavsiflangan, O'zbekiston respublikasi fan va texnologiyasi rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Ildizmevali sabzavotlar va ularni ahamiyati bo'yicha olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlari tahlili**» deb nomlangan birinchi bobi ikkita bo'limdan iborat bo'lib, «*Ildizmevali sabzavotlarni mineral o'g'itlarga bo'lgan talabi, tuproqqa bo'lgan ta'siri bo'yicha ishlar tahlili*» deb nomlangan birinchi bo'limida mineral o'g'itlarning ildizmevali sabzavotlarni o'sish-rivojlanishiga mineral o'g'itlar me'yorlarini ta'siri, «*Mineral o'g'itlar bilan ildizmevali sabzavotlarni hosildorligi va hosil sifati orasidagi bog'liqliklar*» deb nomlangan ikkinchi bo'limida esa ildizmevali sabzavotlar hosildorligi hamda hosil sifatiga mineral o'g'itlar me'yorlarini ta'siri haqida chet ellarda va respublikamizda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijalari tahlil qilingan. Qayd qilingan adabiyotlar ma'lumotlari xulosasi sifatida respublikamiz sug'oriladigan och tusli bo'z tuproqlarida ildizmevali sabzavotlardan yuqori va sifatli ildizmeva hosili yetishtirish bo'yicha izlanishlar zarurligi ilmiy asoslangan.

Dissertatsiyaning «**Tajriba olib borish usul-uslubiyati**» deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqot olib borilgan hududning iqlimi, tuproqlari va navlar tavsifi hamda tadqiqot olib borish uslublari to'g'risidagi ma'lumotlar keltirilgan.

Tadqiqotlarimiz Namangan viloyati Namangan tumanida tarqalgan sug'oriladigan och tusli bo'z tuproqlari sharoitida olib borildi. Kesma asosida olingan dastlabki tuproq namunalari tahlil natijalariga ko'ra tuproq profilining haydov va

haydov osti qatlamlarida oʻrta qumoq, pastki qatlamlari esa ogʻir qumoq, 0-32 sm qatlamda gumus 1,401%, umumiy azot 0,097%, fosfor 0,145%, kaliy 2,314%, harakatchan N-NO₃-21,6; P₂O₅-29,8, K₂O-214,0 mg/kg ni tashkil qildi va pastki qatlamlarga tushgan sari u kamayib borgan. Ushbu qatlamda 0,01 mm dan kichik fraksiyalar 35,2% ni tashkil qilib, oʻrta qumoqdir.

Tadqiqot olib borilgan hudud Namangan viloyatida joylashganligi bois shu hududning iqlim sharoitlari tahlil qilingan. “Namangan” meteostansiyasini koʻp yillik maʼlumotlariga koʻra samarali haroratlar yigʻindisi 2403°C, tajriba yillarida yillik oʻrtacha havo harorati 2021-yilda 2673°C, 2022-yilda 2649°C va 2023-yil 2590°C boʻlishligi takroriy ekilgan ildizmevali sabzavotlardan yuqori hosil olishni taʼminladi.

Dala tajribasi 2021-2023-yillar mobaynida Namangan tumanidagi och tusli boʻz tuproqlar tarqalgan 3 gektar maydonida takroriy ekilgan ildizmevali sabzavotlar uchun mineral oʻgʻitlar meʼyorlari oʻrganilgan (1-jadval).

1-jadval.

Tajriba tizimi


№	Mineral oʻgʻitlarning yillik meʼyori, kg/ga			Haydov ostiga		Ekishdan oldin	Chin barg hosil boʻlganida	Ildizmeva jadal rivoj.
	N	P	K	P	K	N	N	N
Turp								
1	-	-	-	-	-	-	-	-
2	100	75	100	75	100	20	30	50
3	150	100	150	100	150	30	50	70
Sholgʻom								
4	-	-	-	-	-	-	-	-
5	100	75	100	75	100	20	30	50
6	150	100	150	100	150	30	50	70
Osh lavlagi								
7	-	-	-	-	-	-	-	-
8	100	75	100	75	100	20	30	50
9	150	100	150	100	150	30	50	70
Bryukva								
10	-	-	-	-	-	-	-	-
11	100	75	100	75	100	20	30	50
12	150	100	150	100	150	30	50	70

Dissertatsiyaning « **Ildizmevali sabzavotlar va ularga qoʻllanilgan mineral oʻgʻitlarni tuproqdagi oziqa moddalarga hamda oʻsimlikni oziqa moddalarini oʻzlashtirishiga taʼsiri**» deb nomlangan uchinchi bobi uchta boʻlimdan iborat boʻlib, «*Ildizmevali sabzavotlar hamda ularga qoʻllanilgan mineral oʻgʻitlar meʼyorlarini tuproqdagi nitratli azot dinamikasiga taʼsiri*» deb nomlangan birinchi boʻlimida tuproqdagi nitratli azot dinamikasi birinchi yili mineral oʻgʻitlar umuman berilmagan 1, 4, 7 va 10-variantlarda dastlabkidan kamayib borgan.

Mineral oʻgʻitlar N₁₀₀P₇₅K₁₀₀ kg/ga berilgan 2, 5, 8 va 11-variantlarda uning miqdori dastlabkidan ortib bordi yaʼni, turp va sholgʻom, osh lavlagi ekilganida bir xil 1,8 mg/kg, bryukvada esa eng kam 1,6 mg/kg ortganligini, mineral oʻgʻitlar meʼyorini N₁₅₀P₁₀₀K₁₅₀ kg/ga gacha oshirib borish bilan tuproqdagi nitratli azot


miqdori boshqa variantlarga nisbatan ortib borib, 3-variantda 3,2 mg/kg, 6-variantda 2,6 mg/kg, 9-variantda 2,4 mg/kg va 12-variantda 2,7 mg/kg ga dastlabkidan ortganligi kuzatildi. Bu kabi ma'lumotlar tajriba barcha variantlarida ikkinchi va uchinchi yillarida ham olindi (1-rasm). Shuningdek, mineral o'g'itlar me'yorini $N_{150}P_{100}K_{150}$ kg/ga qilib belgilanganda tuproqning 0-100 sm qatlamida turp ekilganda dastlabkidan birinchi yili 0,7 mg/kg, ikkinchi yili 2,1 mg/kg ga, uchinchi yili 1,3 mg/kg ga kamayganligini ko'rishimiz mumkin. Tajribada boshqa sholg'om, osh lavlagi va bryukva ekilgan va $N_{150}P_{100}K_{150}$ kg/ga mineral o'g'it berilgan variantlarda nitratli azot miqdori dastlabki ko'rsatgichlardan o'simlik vegetatsiyasi oxiriga qadar ortib bordi. Bu kabi holat tajribaning barcha yillarida kuzatildi.

Ushbu bobning «Tuproqdagi harakatchan fosfor dinamikasini ildizmevali sabzavotlarga qo'llanilgan mineral o'g'itlar meyorlariga bog'liqligi» deb nomlangan ikkinchi bo'limida tajribaning barcha yillari harakatchan fosfor miqdori dastlabkidan o'simlik vegetatsiyasi oxirigacha kamayib borgan (2 A, B-rasmlar)



1-rasm: Ildizmevali sabzavotlarni tuproq tarkibidagi nitratli va ammoniy azot dinamikasiga ta'siri, 0-30 sm qatlamda mg/kg hisobida, 2023-yil

Bunga sabab fosforli mineral o'g'itlarni ekin ekilishidan oldin berilganligi bo'lsa keyingi navbatda qo'llanilgan mineral o'g'itlarning me'yorlari bo'lsa kerak. Tajribaning birinchi yili mineral o'g'itlar berilmagan 1, 4, 7, va 10-variantlarda ularning miqdori mos ravishda 32,4; 32,2; 32,3; 32,2 mg/kg ni tashkil etgan bo'lsa, fosforli o'g'itlar 75 kg/ga meyorda ($N_{100}K_{100}$ kg/ga o'g'it fonida) berilgan 2, 5, 8 va 11-variantlarda 32,9; 33,0; 32,8; 33,1 mg/kg, mineral o'g'itlar me'yorini $N_{150}P_{100}K_{150}$ kg/ga qilib berish bilan tuproqning dastlabki xolatidagi oldingilarga nisbatan ham harakatchan fosfor miqdori 3, 6, 9 va 12-variantlarda mos ravishda 33,1; 33,3; 33,2 hamda 33,4 mg/kg yuqoriroq bo'lganligi kuzatildi. Shuni ham aytish joizki, o'simliklar turiga qarab ham tuproqdagi harakatchan fosfor miqdori o'zgarib bordi. Mineral o'g'itlar umuman berilmagan ammo, ildizmevali sabzavotlardan turp (1-var.), sholg'om (4-var.), osh lavlagi (7-var.), bryukva (10-var.) ekilganida dastlabkiga nisbatan o'simlik vegetatsiyasining oxirigacha 1,6; 1,5; 1,5 va 1,5 mg/kg ga kamayganligi aniqlandi.



2-rasm: Ildizmevali sabzavotlarga qo‘llanilgan mineral o‘g‘itlarni tuproqdagi harakatchan fosfor dinamikasiga ta’siri, A-0-30 sm, B-0-70 sm, mg/kg hisobida, 2022-yil

Tajribaning ikkinchi yili olib borilgan tajribada tuproqdagi harakatchan fosfor miqdori o‘rganildi. Olingan ma’lumotlarga qaraganda tuproqning 0-30 sm qatlamida mineral o‘g‘itlar umuman berilmagan variantlarda oldingi yilgiga qaraganda kamayish biroz yuqori bo‘lganligi kuzatildi, 1-variantda u 32,7 mg/kg dan 31,3 mg/kg ga, 4-variantda 32,7 mg/kg dan 31,3 mg/kg ga, 7-variantda 33,3 mg/kg dan 31,9 mg/kg ga va 10-variantda 33,1 mg/kg dan 31,7 mg/kg gacha kamayib bordi.

Mineral o‘g‘itlar me’yorini $N_{100}P_{75}K_{100}$ kg/ga qilib belgilangan 2, 5-variantlarda (turp va sholg‘om ekilgan) harakatchan fosfor dastlabkidan bir xil 1,9 mg/kgga kamaygan bo‘lsa, 8-11-variantlarda (osh lavlagi, bryukva ekilgan) ham bir xil 1,8 mg/kg ga kamayganligi aniqlandi. Ildizmevali sabzavotlar uchun mineral o‘g‘itlar me’yorini oshirib $N_{150}P_{100}K_{150}$ kg/ga yetkazilishi bilan tuproqdagi harakatchan fosfor miqdori turp va sholg‘om ekilganida bir xil 2,2 mg/kgga, osh lavlagi ekilganida 2,1 mg/kg ga, bryukva ekilganida esa 2,0 mg/kg miqdorda dastlabkidan kamayganligini ko‘rishimiz mumkin. Bundan kelib chiqib, aytish mumkinki, ildizmevalilardan turp va sholg‘om harakatchan fosforni nisbatan ko‘p o‘zlashtirsa, osh lavlagi hamda bryukva ularga nisbatan kam o‘zlashtirar ekan.


Tuproqdagi harakatchan fosfor miqdoriga ildizmevali sabzavotlarni tajribaning uchinchi yili o‘rganildi. Bu yilda ham olingan ma’lumotlar oldingi yilgilarni takrorladi va qonuniyat saqlanib qoldi. Shuni ham aytib o‘tish kerakki, tajribaning barcha yillarida tuproqdagi harakatchan fosfor miqdori bir-biridan keskin farq qilmadi. Tuproqning 0-30 sm qatlamida dastlabki kuzatishlarda tajriba variantlari bo‘yicha 33,2-33,8 mg/kg oralig‘ida, 0-70 sm qatlamda esa bu 26,2-27,1 mg/kg bo‘lganli kuzatildi. Bundan ko‘rishimiz mumkinki, mineral o‘g‘itlar berilmagan variantlarda eng kam, mineral o‘g‘itlar me’yori $N_{100}P_{75}K_{100}$ kg/ga bo‘lganida ko‘proq va $N_{150}P_{100}K_{150}$ kg/ga bo‘lganida eng ko‘p bo‘ldi. Ildizmevali sabzavotlar vegetatsiyasi davomida bular orasidagi farq sezilib bordi. Demak, tuproq tarkibidagi harakatchan fosforni o‘zgarishi faqat mineral o‘g‘itlar me’yorlariga emas, balki ekin turiga ham bog‘liq bo‘lar ekan. Shuning uchun ekin turlari bo‘yicha tahlil qilganimizda turp va sholg‘om o‘simligi ekilgan va mineral berilmaganda (1, 4-var.) bir xil 1,3 mg/kg ga kamaygan bo‘lsa, osh lavlagi va bryukva ekilganida (7, 10-var.) esa ular bir xil 1,2 mg/kg ga kamaydi. Mineral o‘g‘itlar $N_{100}P_{75}K_{100}$ kg/ga berilgan va turp ekilganida 1,9; sholg‘om ekilganida 2,0; osh lavlagi va bryukva o‘stirilganda

esa bir xil 1,8 mg/kg ga kamayishi kuzatildi. Shuningdek, mineral o'g'itlar me'yorini N₁₅₀P₁₀₀K₁₅₀ kg/ga qilib belgilanganda ham ekin turlari bo'yicha mos holda 2,1; 2,2; 2,0 va 2,0 mg/kg ga kamayib borganligi aniqlandi.

Ushbu bobning «Ildizmevali sabzavotlarga qo'llanilgan mineral o'g'itlar me'yorlari bilan tuproqdagi almashinuvchan kaliy dinamikasi orasidagi korrelyatsion bog'liqlik» deb nomlangan uchinchi bo'limida tajribaning barcha yillarida tuproqdagi almashinuvchan kaliy miqdori (tuproqning 0-30 sm qatlamida) mineral o'g'it berilmagan 1, 7-variantlarda bir xil 210 mg/kg, 4 va 10-variantlarda ham bir xil 200 mg/kg ga to'g'ri kelgan. Mineral o'g'itlarni N₁₀₀P₇₅K₁₀₀ kg/ga berilgan 2, 5, 8 va 11-variantlarda bu ko'rsatgich mos holda 220, 210, 220, 210 mg/kg ni, N₁₅₀P₁₀₀K₁₅₀ kg/ga me'yorda mineral o'g'itlar berilgan 3, 6, 9 hamda 12-variantlarda ularning miqdori 230, 220, 223, 220 mg/kg ni tashkil qildi.

O'simlik vegetatsiya davri davomida tuproqdan oziqa moddalarini o'zlashtiradi, bu esa ularning turlariga bog'liq bo'lishi tuproqdagi oziqa moddalari dinamikasiga ta'sir ko'rsatdi. Mineral o'g'it berilmagan turp, sholg'om, osh lavlagi va bryukva ekilgan variantlarda almashinuvchan kaliy miqdori dastlabkidan 47, 38, 35, 49 mg/kg ga kamayganligi kuzatildi. Shuningdek, N₁₀₀P₇₅K₁₀₀ kg/ga o'g'it berilganida o'simlik o'sish-rivojlanishi jadallashishi ko'proq oziqani o'zlashtirishiga olib kelib, dastlabkidan turp ekilganida 43 mg/kg, sholg'omda 47, osh lavlagida 35 hamda bryukvada 49 mg/kgga kamayganligini kuzatildi. Mineral o'g'itlar me'yorlarini ortishi (N₁₅₀P₁₀₀K₁₅₀ kg/ga) bilan tuproqdan almashinuvchan kaliy o'zlashtirishi ortishini o'simliklarni o'sish rivojlanishi bilan bog'lab 3-variantda 51, 6-variantda 48, 9-variantda 49, 12-variantda esa 50 mg/kg ga kamayganligi aniqlandi. Huddi shunday xolatni tuproqning 0-70 sm qatlamida ham kuzatdik faqat, oziqa moddalarni tuproqning pastki qavatiga tushgani sayin kamayib borishi bilan farqlandi.

Tajribaning ikkinchi yilida ham oldingi yilgi qonuniyat tasdiqlandi ammo, tuproq tarkibidagi almashinuvchan kaliy miqdori birinchi yilgidan biroz kamligini va mineral o'g'itlar me'yorlariga bog'liq holda bir xil ekanligini ko'rishimiz mumkin (3-rasm va 2-jadval).



3-rasm: Ildizmevali sabzavotlar turiga va mineral o'g'itlar me'yorlariga bog'liq ravishda tuproqdagi almashinuvchan kaliy dinamikasi, 0-30 sm, mg/kg hisobida, 2022-yil

Tuproqning 0-30 sm qatlamida almashinuvchan kaliy miqdori mineral o'g'itlar berilmagan 1, 4, 7 va 10 variantlarda bir xil 190 mg/kg, mineral o'g'itlar N₁₀₀P₇₅K₁₀₀ kg/ga berilgan 2, 5, 8, 11-variantlarda ham 200 mg/kg, N₁₅₀P₁₀₀K₁₅₀ kg/ga me'yorida mineral o'g'itlar berilgan variantlarda (3, 6, 9 va 12-var.) ham bir xil ko'rsatgich 210 mg/kg ni tashkil qildi. Turp ekilgan 1, 2, 3-variantlarda mos ravishda 47, 45, 51 mg/kg, sholg'om ekilgan 4, 5, 6-variantlarda 40, 38, 51 mg/kg, osh lavlagi ekilgan 7, 8, 9-variantlarda 40, 37, 52 mg/kg ga hamda bryukva ekilgan 10, 11, 12-variantlarda 38, 45, 50 mg/kg ga kamayishigi kuzatildi.

Tuproqning 0-70 sm qatlamida bevosita o'simlik ildizlarini tuproq qatlamlari bo'yicha joylashishi bilan bevosita bog'liqdir.

Mineral o'g'itlar berilmagan 1, 4, 7 va 10-variantlarda ketma-ketlikda 25, 24, 23 hamda 24 mg/kg ga, mineral o'g'itlarni N₁₀₀P₇₅K₁₀₀ kg/ga berilganida esa 2, 5, 8, 11-variantlar bo'yicha o'g'it berilmagan-dan biroz ortib, 32, 27, 31, 29 mg/kg ga kamaydi. Ildizmevali sabzavotlarga mineral o'g'itlar me'yorini oshirib N₁₅₀P₁₀₀K₁₅₀ kg/ga yetkazish bilan esa kamayish yanada ortgan va u 3, 6, 9 hamda 12-variantlar bo'yicha 34, 32, 32, 33 mg/kg ga to'g'ri keldi.

Uchinchi yili tuproq tarkibidagi almashinuvchan kaliy miqdori mineral o'g'itlar me'yorlariga bog'liq ravishda turlicha miqdorda bo'ldi, tuproqning 0-30 sm qatlamida 1-variantdagi (turp ekilganda) 200 mg/kgdan 162 mg/kg gacha, sholg'om ekilganida u 190 mg/kg dan 152 mg/kg ga, osh lavlagi ekilganida esa u 200 dan 161 ga, bryukva ekilganida esa 190 dan 152 mg/kg gacha kamayib bordi.

2-jadval.

Ildizmevali sabzavotlar turiga va mineral o'g'itlar me'yorlariga qarab tuproqdagi almashinuvchan kaliy dinamikasi, mg/kg hisobida, 2023-yil

Muddatlar	Qatlam, sm	Variantlar											
		1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12
Dastlabki	0-30	200	210	220	190	200	210	200	210	213	190	200	210
	0-70	177	183	192	184	190	194	184	191	193	183	183	194
Avgust	0-30	191	200	208	180	189	198	191	200	201	181	189	198
	0-70	169	176	180	171	176	182	165	184	186	171	177	185
Sentyabr	0-30	181	188	195	170	177	186	180	189	189	171	178	186
	0-70	162	167	172	166	168	172	166	174	177	165	170	173
Oktyabr	0-30	170	177	182	160	165	174	170	178	177	161	167	174
	0-70	158	159	166	155	159	156	160	170	157	156	160	164
Noyabr	0-30	162	167	171	152	155	163	161	168	166	152	158	164
	0-70	149	153	156	145	148	155	156	156	157	150	152	159

Mineral o'g'itlar qo'llash hisobiga o'simliklar yaxshi o'sib tuproqdan ko'p oziqa moddalarini o'zlashtirishi hisobiga ular nisbatan ko'proq kamayishi kuzatil-di. Turp o'simligiga N₁₀₀P₇₅K₁₀₀ kg/ga mineral o'g'it qo'llanilganda 43 mg/kg ga kamaygan bo'lsa, N₁₅₀P₁₀₀K₁₅₀ kg/ga mineral o'g'it qo'llanilganda esa 49 mg/kg ga kamayganligi kuzatildi. Shuningdek, sholg'om o'simligiga yuqoridagi kabi me'yorda mineral o'g'itlar qo'llanilishi hisobiga (5, 6-var.) 45 hamda 47 mg/kg ga, osh lavlagida (8, 9-var.) 42, 47 mg/kg ga, bryukvada (11, 12-var.) mos ravishda 42, 46 mg/kg ga kamayganligi aniqlandi. Bu kabi ma'lumotlar tuproqning 0-100 sm qatlamida ham olindi. Tuproqdagi almashinuvchan kaliy miqdori dinamikasini eng yuqori o'zgarishi turp ekilib, N₁₅₀P₁₀₀K₁₅₀ kg/ga mineral o'g'it qo'llanilganda

kuzatilib, u 30 mg/kg gacha kamayishi kuzatildi. Dinamikaning eng kam o'zgarishi esa osh lavlagi ekib mineral o'g'it qo'llanilmaganda 21 mg/kg ni tashkil qildi.

Ushbu bobning «Mineral o'g'itlar me'yorlariga bog'liq holda ildizmevali sabzavotlar oziqa moddalarini o'zlashtirishi» deb nomlangan to'rtinchi bo'limida ildizmevali sabzavotlarga qo'llanilgan mineral o'g'itlar samaradorligi aniqlandi (3-jadval).

Tajribada 10 t/ga hosil olish uchun qo'llanilgan mineral o'g'itlar samaradorligi eng yuqori bo'lgani osh lavlagida kuzatilib, mineral o'g'it ishlatilmaganda eng yuqori 45,2 kg/ga bo'lsada hosil kam, N₁₀₀P₇₅K₁₀₀ kg/ga berilganda 45,7 kg/ga, me'yor N₁₅₀P₁₀₀K₁₅₀ kg/ga yetkazilganda 45,4 kg/ga ni tashkil qildi. Turp o'simligida esa osh lavlagidan biroz yuqori o'g'it sarflanib, samaradorlik biroz kam bo'ldi. Mineral o'g'itlar umuman berilmaganda 51,5 kg/ga, mineral o'g'itlar turli me'yorda berilgan 2 va 3-variantlarda 52,3 hamda 52,2 kg/ga azotni tashkil qilganligi kuzatildi. Tajribada o'rganilayotgan boshqa (sholg'om va bryukva) o'simliklarda mahsulot etishtirish uchun sarflangan oziqa elementlari biroz yuqori bo'lganligi aniqlandi.

Shuningdek, tajribada o'simlik mahsulotlari bilan olib chiqib ketilgan azot, fosfor, kaliyning nisbatlarini ham aniqladik va uni 4-rasmda keltirib o'tdik. Unga ko'ra, ildizmevali sabzavotlar birinchi navbatda azotni, keyingi navbatda kaliyni va oxirida fosforni ko'p o'zlashtirar ekan. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, mineral o'g'itlar berilmagan variantlarda (1, 4, 7, 10 var.) fosfor va kaliyni o'zlashtirishi azotga nisbatan ancha kam bo'lganligini (1:0,4:0,9 nisbatda) aniqladik.

3-jadval


Mineral o'g'itlar me'yorlariga bog'liq ravishda ildizmevali sabzavotlar tarkibidagi oziqa moddalari miqdori va nisbati, kg/ga hisobida, o'rtacha (2021-2023 yillar)

Variantlar	Ildizmevalar hosildorligi, s/ga		O'zlashtirgan oziqa elementlari miqdori			10 t ildizmeva va shunga mos barg hosili uchun sarf bo'lgan oziqa moddalar, kg hisobida			O'simlik tarkibidagi oziqa moddalar nisbati (azotga nisbatan)
	Ildizmeva	Barg	N	P	K	N	P	K	
1	211,6	66,7	109,0	44,5	98,9	51,5	21,0	46,8	1:0,4:0,9
2	237,0	80,7	123,9	60,8	121,9	52,3	25,7	51,4	1:0,5:1,0
3	246,0	88,7	128,3	66,8	128,8	52,2	27,2	52,3	1:0,5:1,0
4	189,3	70,7	106,8	43,7	95,3	56,4	23,1	50,3	1:0,4:0,9
5	219,7	91,7	121,8	59,8	121,3	55,4	27,2	55,2	1:0,5:1,0
6	228,3	96,7	126,2	65,5	127,1	55,3	28,7	55,7	1:0,5:1,0
7	237,0	90,7	107,2	43,0	94,5	45,2	18,1	39,9	1:0,4:0,9
8	266,0	109,0	121,6	59,1	120,8	45,7	22,2	45,1	1:0,5:1,0
9	277,3	113,3	125,8	64,4	125,2	45,4	23,2	45,2	1:0,5:1,0
10	189,6	65,0	106,1	42,2	93,7	56,0	22,3	49,4	1:0,4:0,9
11	217,6	80,0	120,4	58,1	120,2	55,3	26,7	55,2	1:0,5:1,0
12	228,0	88,3	123,7	63,4	124,4	54,3	27,8	54,6	1:0,5:1,0

